

NIKOH VA NIKOHDAN TASHQARI MUNOSABATLARIGA PSIXOLOGIK YONDOSHUV

Burxonova Y.I

QarDU tayanch doktoranti.

Nikoh va nikohdan tashqari munosabatlar jahon miqyosida keng o'rganilayotgan muammolardan biridir. U kishilik jamiyati paydo bo'lgandan buyon diniy-mifologik va ilmiy-falsafiy qarashlarda jinsiy hayot masalalari xalq og'zaki ijodiyoti, afsona-rivoyatlarga tayangan san'at asarlarida, tarixiy yodgorliklarda, haykallarda o'z aksini topgan. Kishilik jamiyat tarixida nikohdan tashqari munosabatlar bilan bog'lik bo'lgan muammolar hamisha turli baxs va munozaralar predmeti bo'lib kelgan. Bu muammoni ilmiy jihatdan tadqiq etgan amerikalik psixolog olimlar Jon Ganbon va Jon Mani germaniyalik Gunter Shmidt, Kurt Shtarke, Volter Fridrixlarning ilmiy izlanishlarida ushbu masala mustaqil tadqiqot predmeti sifatida o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida nikohdan tashqari munosabatlar, insonlarda jinsiy xulq meyorlari va odatlari turli millatda turlicha ekanligi, bir ijtimoiy davr uchun ma'qul hisoblangan nikohdan tashqari munosabatlardagi va oilaviy jinsiy xulq meyorlari keyingi ijtimoiy davr uchun mos tushmasligi ko'rsatib o'tilgan.

Nikohdan tashqari munosabatlarning biologik xususiyatlarini taniqli ingliz psixologi Gans Yurgen Ayzenk ham o'z ishlarida yoritgan. U nikohdan tashqari munosabatdagi shaxslarning ekstravertlik va introvertlik xususiyatlari, shaxs qadriyatlarini va shaxs tiplarini tizimli ravishda o'rgangan. Ekstravert tipdagi ayollarda jinsiy qoniqish darajasi introvert tip vakillariga nisbatan yuqori bo'lishi va o'z nikohidan qoniqish hissi paydo bo'lmasa, ularda nikohdan tashqari munosabatlarni yuzaga kelishi ehtimoli yuqori ekanligi bir qator ilmiy xulosalar natijalari bilan ko'rsatib o'tgan. Masalan, A.G.Krivsov er-xotin o'rtasidagi nikohdan tashqari munosabatlarni yuzaga keltiruvchi quyidagi sabablarni ko'rsatib o'tadi: a) er-xotin munosabatlarining yaxshi emasligi; b) ularning individual-psixologik xususiyatlarining o'zaro mos emasligi; v) shaxsiy ustanovkalarida jinsiy tarbiya haqidagi tushunchaning noto'g'ri ekanligi yoki umuman mavjud emasligi; g) yoshi katta insonlarda jinsiy munosabatlar haqidagi psixo-fiziologik, psixogigiyenik bilimlarning yetarli darajada emasligi, noto'g'ri tahlil, tushuncha va xavotirning mavjudligi; d) er-xotin o'rtasidagi jinsiy munosabatlarning nozik jabhalari, masalan, ular bir- birlarining hissiyotlarini uyg'otuvchi harakatlarni, o'zlariga jalb qilishni bilmasliklari va istamasliklari kabi omillarni ko'rsatib o'tadi.

“Hindiston vaqti” (Time of India) jurnalida Nischala Murtxi Kaushik (Nischala Murthy Kaushik) tomonidan nikohdan tashqari munosabatlarga kirishishning quyidagi o'n ikki sababi keltirib o'tilgan:

1. Erta nikoh – tadqiqotlarda erda oila qurgan insonlarda oiladan tez to'yinish va nikohdan tashqari munosabatlarga moyillikning ortishi kuzatilganligi ko'rsatilgan.

2. Noto'g'ri sabablarga ko'ra oila qurish – aksariyat juftlarda nikoh oldi motivlari nikoh mohiyatiga muvofiq kelmaydi. Ko'pchilik odamlar o'z turmush o'rtog'ini tanimasdan nikohga rozi bo'ladi. Keyinchalik ular turmush o'rtog'ini tanlashda xato qilganligini “anglaydi”lar.

3. O'zgarishlarni to'g'rilashga qodir bo'lmaslik – hayot bizni deyarli har kuni o'zgartiradi. Moliyaviy yo'qotishlar, ish joyini yo'qotish, o'lim va oila a'zolaridan birining jiddiy kasalligi kabi muammolardan qutilish va o'zini yengilroq his qilish uchun shu sharoitlarga bog'liq bo'lmagan birorta insonni topishga intilish hissi yuzaga keladi. Shaxs shu odamning ishtirokida ko'proq tasalli topadi. Boshqacha aytganda ijtimoiy-iqtisodiy homiy, “yaqin kishisini topish”, og'ir kunlarda ruhiy dalda berib, zarur bo'lganda iqtisodiy yordam berib turadi, deb hisoblanadi.

4. Farzandning dunyoga kelishi – ota-onaga aylanish er-xotin munosabatlariga ta'sir o'tkazmay qo'ymaydi. Er-xotinning bir-biriga ajratadigan vaqti kamayadi va turmush tarzini (yashash muhitini) keskin o'zgartiradi.

5. Jismoniy norozilik – nikohdan tashqari munosabatlarning eng ko'p tarqalgan turlaridan biri.

6. Hissiy ajralib qolish – er-xotinning bir-biri bilan o'zaro munosabatlarga kirishishida vaqt yo'qligi sababli ular o'rtasida hissiy ajralishlar yuzaga keladi. Ularda bir-biriga g'amxo'rlik qilish, bir-birini eshitish, kulish, hissiyotlarini bo'lishish kabi tuyg'ular yetishmasligi boshqalar bilan hissiy jihatdan bog'lanishga intilishga sabab bo'ladi. Hissiy intilish oxir-oqibat nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

7. Shaxsiy qadriyatlarining mos kelmasligi – ba'zan hayotda qiyin vaziyatlarga duch kelganimizda bizning shaxsiy qadriyatlarimiz sinovdan o'tadi. Shunday vaziyatlarda qabul qilayotgan qarorlarimiz oilamiz, ayniqsa, turmush o'rtog'imiz qadriyatlariga mos kelmasligi mumkin. Buning oqibatida ro'y berishi mumkin bo'lgan surunkali nizoli vaziyatlar nikohdan tashqari munosabatlarga olib kelishi ehtimoli bor.

8. Hayotning turli ustuvor omillarini farqlash – er-xotin oila qurganda, ko'pincha ular hayotning turli ustuvor omillari to'g'risida suhbatlashmaydilar. Ular

uchun bu narsalar muhim emasdek yoki tushunarsiz holatdek tuyuladi. Vaqt o'tishi bilan bunday holatlar er-xotinlarning bir-biri bilan yashashini murakkablashtiradi. Hatto oilaning asosiy qadriyatlari ham oddiy holat sifatida qabul qilinishga olib keladi. Bu esa nikohdan tashqari munosabatlar uchun turtki (motiv) bo'lishi mumkin.

9. Umumiy manfaatlarning yo'qligi - agar er-xotinning umumiy maqsad va intilish bo'lmasa, ohir-oqibat o'z manfaatlarini qondirish uchun boshqa obyekt qidiradi. Bir-biri bilan uzoq vaqt birga bo'lmasa, boshqalar bilan manfaatlarni o'rtoqlashishga to'g'ri keladi. Bu esa asta-sekinlik bilan nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqaradi.

10. Hayojonlanish qobiliyatining mavjudligi - bu hayotda muhim omil hisoblanib, bir xil, mashaqqatli va zerikarli hayot tarzini buzadi.

11. Shaxsiy mablag' - oiladagi maishiy harajatlar uchun pulni taqsimlay olmaslik yoki pul munosabatlarida kelisha olmaslik ba'zan muntazam tortishuvlarga sabab bo'ladi. Bu esa nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqaruvchi sabab hisoblanadi.

12. Ma'muriy, ilmiy, ijodiy o'sish- ba'zi odamlar (aksariyat xolda ayollar) o'zining lavozimi (karyerasi) rivojlanishi uchun nikohdan tashqari munosabatlarga kirishadilar. Bu nikohdan tashqari munosabatlarga olib keluvchi keng tarqalgan sabablaridan biridir.

Nikohdan tashqari munosabatlarga sabab bo'ladigan omillarni chet el psixologiya nashrlarida yoritilishi va ushbu muammo juda ko'plab soha olimlarining ilmiy tadqiqot markazida bo'lganligi, nikohdan tashqari munosabatlarning yuzaga kelish masalalari insonlar uchun doimo dolzarb mavzu ekanligini bildiradi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Абдусаметов Х.У. Оила институтига никоҳдан ташқари муносабатлар таъсирининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Монография. «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi» Toshkent – 2021

2. Шоумаров Ғ.Б. ва бошқ. 1001 саволга психологнинг 1001 жавоби. 1-китоб. //Психол. фан. докт. проф. Ғ.Б.Шоумаров таҳрири остида- Тошкент: “Меҳнат”, 2000. - 208 б.

3. Шоумаров Ғ.Б. ва бошқ. 1001 саволга психологнинг 1001 жавоби. 2-китоб. //Психол. фан. докт. проф. Ғ.Б.Шоумаров таҳрири остида. – Тошкент, 2014. – 290 б.

5. М.Файзиева Оила психологияси . Услубий қўлланма. Қарши “Насаф” нашриёти. 2019. – 137 б.
6. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O‘SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>
7. Elamanovich, O. E. (2022, October). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. In Archive of Conferences (pp. 1-7).
8. Elomonovich, E. O. (2022). OILA PSIXOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI, OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI. Gospodarka i Innowacje., 20, 49-51.
9. Eshmuradov Olmosbek Elamanovich (2021). OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (4), 1318-1323.
10. М. А. Тилакова, & О. Э. Эшмуратов (2021). КРЕАТИВ КОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Scientific progress, 1 (6), 143-149.
11. Eshmurodov, O. (2023). SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUNIT OILA BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9088>
12. Eshmurodov, O. (2023). ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9087>
13. Eshmurodov O. E. SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MAINTAINING FAMILY-MARRIAGE RELATIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 803-807.
14. Eshmurodov, Olmosbek. "ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ." *Scienceweb academic papers collection* (2022).
15. Эшмуратов О. Э. Оиланинг маънавий-ахлоқий хусусиятлари ва оила мустаҳкамлигини таъминлаш имкониятлари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1082-1085.
16. Эшмуратов, О. Э. "Оилавий муҳит ва оилавий муносабатлар психологиянинг ўрганиш предмети сифатида." *ЎзМУ хабарлари*” Мирзо

Улугбек номидаги Ўзбекистон миллий университети илмий журналы (2019):
162-164

17. Eshmurodov O. ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ //Scienceweb academic papers collection. – 2022.

18.Eshmurodov, O. (2024). ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА ДОЛЗАРБЛИГИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 148-151. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9838>

19.Eshmurodov, O., & O'roqova, L. (2024). МАКТАБЛАРДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИ RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 152-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9839>

20.Eshmurodov, O., & Fazliddinova, U. . (2024). КИЧИК МАКТАБ YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI O'QISHGA O'RGATISHDA ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ О'РНИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 169-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9840>

